



TOSHKENT DAVLAT
IQTISODIYOT UNIVERSITETI

ISSN: 2992-9083

O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI

VOL. 3 ISS:5 (2026)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN

СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



TDIU, Islom Karimov 49, 100066, Toshkent



<https://insurance.tsue.uz>

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, i.f.d. prof.).
2. Fayziyev Orifjon Olimovich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktor o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (O‘zbekinvest eksport-import sug‘urta kompaniyasi AJ Bosh direktori, i.f.d. prof.).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d., prof.).
5. Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d. prof.).
6. Xudoyqulov Sadirdin Karimovich (TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi direktori).
7. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari Uyushmasi Kengash raisi).
8. Qo‘ldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, i.f.d., Bosh muharrir).
9. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, i.f.d. prof.).
10. Shennayev Xo‘jayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
11. Boyev Habibullo Ismoilovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, i.f.d.).
12. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, i.f.d.).
13. Merident Randles (FSA, MAAA. Prinsipal & Consulting Actuary. Senior Consultant, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
14. Ong Xie (FIA, FSAS. Program Manager, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Pronouns: She/Her).
15. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori, i.f.d.).
16. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU magistratura dekan muovini, i.f.d.).
17. Maxmudov Akbar Abduxamidovich (Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti rektori, PhD, dotsent).
18. Axrorov Zarif Oripovich (TDIU Samarqand filiali “Moliya, soliq va bank ishi” kafedrasida mudiri, i.f.d., dotsent).
19. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i, i.f.n. dots.).
20. Raxmatullayev Botirjon Abduxamidovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti. Akademik faoliyat bo‘yicha prorektor PhD, dotsent).
21. Musaxonzoda Ikromjon Sobirxon o‘g‘li (TMC institute “Milliy ta’lim yo‘nalishlari akademik faoliyat va ilmiy ishlar” bo‘yicha prorektor, PhD).
22. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi bo‘lim boshlig‘i, PhD).
23. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU magistratura dekan muovini, PhD, dots.).
24. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professor v.b., i.f.n.).
25. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD. Tahririyat kengashi kotibi).
26. Agzamov Avazxon Talgatovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, PhD).
27. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
28. Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, PhD).
29. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (“Ma‘mun” universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti, PhD).
30. Abduturapova Dildora Farxodjon qizi (“Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish” bo‘limi bosh mutaxassisi, PhD).
31. Abdusattarova Dildora Baxodirovna (TDIU “Soliq va soliqqa tortish kafedrasida dotsenti).
32. Nosirov Jasur Tursunpulotovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti “Akademik faoliyat va registrator” departamenti rahbari, PhD, dotsent).
33. Adilova Gulnura Jorabayevna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD.).
34. Malikova Dilrabo Mo‘minovna, (TDIU Samarqand filiali "Moliya, soliq va bank ishi" kafedrasida dotsenti, PhD).
35. Bobomurotova Manzura Panji qizi (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida assistenti, PhD).

№	MUNDARIJA	Page
1.	YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH VA ATMOSFERAGA CHIQARILADIGAN CO₂ EMISSIYASI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK <i>Xoshimov P.Z, Egamnazarova G.Sh</i>	4
2.	YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA HUDUDIY MAISHIY CHIQINDILARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: XORAZM VILOYATI MISOLIDA EMPIRIK TAHLIL <i>Djumabayeva Shaira Xalillayevna, Jumaniyozov Farxodjon Rajapboy o'g'li</i>	8
3	TOSHKENT MINTAQASIGA XOS AGROTURIZM RESURSLARI HAMDA INFRATUZILMA HOLATI VA BARQAROR RIVOJLANISH OMILLARI <i>Shodiyeva Nafosat Hamza qizi</i>	14



YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA HUDUDIY MAISHIY CHIQINDILARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: XORAZM VILOYATI MISOLIDA EMPIRIK TAHLIL

Djumabayeva Shaira Xalillayevna

Ma'mun universiteti dotsenti, i.f.f.d.

Email: djsheira1987@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0008-6383-4543>

Jumaniyozov Farhodjon Rajapboy o'g'li

Ma'mun universiteti Iqtisodiyot fakulteti talabasi

Email: farhodjon.jumaniyozov02@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazm viloyatida maishiy chiqindilarni boshqarish tizimining amaldagi holati, xizmat ko'rsatish sifati va aholining ekologik xabardorligi hamda amaliy xulq-atvori o'rtasidagi bog'liqlik empirik ma'lumotlar asosida tahlil qilingan. Tadqiqot 2025-yilda 170 nafar respondent ishtirokida o'tkazilgan sotsiologik so'rovnoma ma'lumotlariga asoslangan bo'lib, unda miqdoriy tahlil, qiyosiy tahlil va tarkibiy dekompozitsiya yondashuvlaridan foydalanilgan. Natijalar chiqindilarni olib chiqib ketish xizmatlarida muntazamlik bilan bog'liq muammolar mavjudligini, aholining ekologik xabardorligi bilan chiqindilarni amalda saralash darajasi o'rtasida sezilarli tafovut mavjudligini ko'rsatdi. Xususan, ekologik xabardorlik darajasi 80,0 foizni tashkil etgan bo'lsa, chiqindilarni muntazam saralovchi respondentlar ulushi 28,8 foizni tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkichlar o'rtasidagi tafovut 51,2 foiz punktni tashkil etib, ekologik bilimlarning amaliy xulq-atvorga to'liq transformatsiya qilinmayotganini ko'rsatadi. Tadqiqot asosida chiqindilarni olib chiqish logistikasini takomillashtirish, raqamli monitoringni rivojlantirish, chiqindilarni manbada saralashni iqtisodiy rag'batlantirish va qayta ishlash infratuzilmasiga investitsiyalarni kengaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, sirkulyar iqtisodiyot, maishiy chiqindilar, chiqindilarni boshqarish, Xorazm viloyati, ekologik xabardorlik, chiqindilarni saralash, "bilim-amal" tafovuti, raqamli monitoring, hududiy infratuzilma.

Abstract: This article presents an empirical analysis of the current state of the municipal solid waste management system in Khorezm region, the quality of waste collection services, and the relationship between the population's environmental awareness and its actual behavioral practices. The study draws on data from a sociological survey conducted in 2025 among 170 respondents, employing quantitative analysis, comparative analysis, and structural decomposition methods. The findings reveal persistent irregularities in waste collection services, as well as a substantial discrepancy between the population's level of environmental awareness and the actual level of waste sorting behavior. Specifically, while 80.0% of respondents demonstrated a high level of environmental awareness, only 28.8% reported sorting waste on a regular basis. This 51.2 percentage-point gap indicates that environmental knowledge is not being fully translated into practical action — a phenomenon consistent with the well-documented "attitude-behavior gap" in environmental sociology. Based on these findings, the study proposes measures to optimize waste collection logistics, expand digital monitoring systems, introduce economic incentives for source-level waste sorting, and increase investment in recycling infrastructure.

Keywords: green economy, circular economy, municipal solid waste, waste management, Khorezm region, environmental awareness, waste sorting, knowledge-behavior gap, digital monitoring, regional infrastructure.

Абстрактный: В данной статье на основе эмпирических данных проанализировано текущее состояние системы управления бытовыми отходами в Хорезмской области, качество оказываемых услуг, а также взаимосвязь между экологической осведомлённостью населения и его практическим поведением. Исследование основано на данных социологического опроса, проведённого в 2025 году среди 170 респондентов, с применением подходов количественного анализа, сравнительного анализа и структурной декомпозиции. Результаты показали наличие проблем, связанных с регулярностью услуг по вывозу отходов, а также значительный разрыв между уровнем экологической осведомлённости населения и фактическим уровнем сортировки отходов. В частности, если уровень экологической осведомлённости составил 80,0%, то доля респондентов, регулярно сортирующих отходы, составила лишь 28,8%. Разрыв между этими показателями составляет 51,2 процентных пункта, что свидетельствует о том, что экологические знания не полностью трансформируются в практическое поведение. На основе исследования разработаны предложения по совершенствованию логистики вывоза отходов, развитию цифрового мониторинга, экономическому стимулированию сортировки отходов на источнике образования, а также расширению инвестиций в инфраструктуру переработки.

Ключевые слова: зелёная экономика, циркулярная экономика, бытовые отходы, управление отходами, Хорезмская область, экологическая осведомлённость, сортировка отходов, разрыв «знание-поведение», цифровой мониторинг, региональная инфраструктура.

Kirish (Введение/Introduction).

XXI asrda urbanizatsiya, aholi sonining o'sishi va iste'mol hajmining kengayishi maishiy chiqindilar hosil bo'lishining o'rtishiga olib kelmoqda. Shu sababli chiqindilarni boshqarish masalasi ekologik muammoni bartaraf etish bilan cheklanmay, resurslardan samarali foydalanish, aholi salomatligini muhofaza qilish, hududlarning barqaror rivojlanishi va iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash bilan bevosita bog'liq strategik vazifaga aylanmoqda. Zamonaviy sirkulyar iqtisodiyot yondashuvida chiqindi faqat utilitatsiya qilinishi lozim bo'lgan qoldiq sifatida emas, balki saralash, qayta ishlash va ikkilamchi foydalanish

orqali iqtisodiy qiymat yaratishi mumkin bo'lgan resurs sifatida qaraladi [1; 2; 3].

O'zbekistonda maishiy chiqindilar hajmining o'sishi va ularni qayta ishlash infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi mazkur masalaning dolzarbligini yanada kuchaytirmoqda. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilda mamlakatda 14,8 mln tonna maishiy chiqindi hosil bo'lgan. Shu davrda chiqindilarni qayta ishlash darajasi 5,2 foizni tashkil etgani qayd etilgan [4]. 2025-yil yakunlariga ko'ra esa hosil bo'lgan maishiy chiqindilar hajmi 15,1 mln tonnaga yetgan [5]. Mazkur ko'rsatkichlar chiqindilarni to'plash, tashish, saralash va qayta ishlash jarayonlarini hududlar kesimida takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Chiqindilarni boshqarish tizimini sirkulyar iqtisodiyot tamoyillari asosida rivojlantirish maqsadida O'zbekistonda so'nggi yillarda institutsional va normativ-huquqiy mexanizmlar kuchaytirildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-martdagi PF-56-son Farmoni bilan chiqindilarni qayta ishlash sohasini yanada takomillashtirish va kompleks tizimlashtirishning ustuvor yo'nalishlari belgilandi [6]. Farmonda mavjud qattiq maishiy chiqindi poligonlarini 2030-yilgacha 50 foizga qisqartirish, yangi hosil bo'layotgan chiqindilarni imkon qadar qayta ishlash yoki termik usulda utilitatsiya qilish, shuningdek, "nol chiqindi" tamoyili asosida ekosanoat zonalarini tashkil etish kabi vazifalar nazarda tutilgan [6]. Mazkur yondashuv chiqindilarni boshqarish tizimini oddiy sanitariya xizmatidan resurslarni iqtisodiy aylanmaga qaytarishga yo'naltirilgan kompleks tizimga aylantirishni ko'zda tutadi.

Biroq chiqindilarni boshqarish tizimining samaradorligi faqat infratuzilma va davlat dasturlariga bog'liq emas. Uy xo'jaliklarining chiqindilarni hosil bo'lish manbayidayoq saralashi, chiqindilarni belgilangan joyga tashlashi, kommunal xizmatlardan foydalanish va ular uchun to'lovlarni amalga oshirish madaniyati ham tizim natijadorligini belgilovchi muhim omillardir. Shu nuqtayi nazardan, aholining ekologik xabardorligi bilan kundalik amaliy xulq-atvori o'rtasidagi tafovutni aniqlash chiqindilarni boshqarish siyosatining hududiy samaradorligini baholashda alohida ahamiyat kasb etadi [7; 8; 9].

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi Xorazm viloyatida chiqindilarni boshqarish tizimining infratuzilmaviy holati, xizmat ko'rsatish sifati va aholining chiqindilar bilan bog'liq xulq-atvorini birgalikda baholash zarurati bilan belgilanadi. Tadqiqotning maqsadi — Xorazm viloyatida maishiy chiqindilarni to'plash va tashish xizmatlarining amaldagi samaradorligini, aholining ekologik xabardorligi va saralash amaliyatini empirik ma'lumotlar asosida baholash hamda sirkulyar iqtisodiyot tamoyillari asosida hududiy chiqindilarni boshqarish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi uchta asosiy yo'nalishda namoyon bo'ladi: birinchidan, Xorazm viloyati aholisi o'rtasida o'tkazilgan sotsiologik so'rovnoma asosida chiqindilarni boshqarish xizmatlarining amaliy holati va ulardan qoniqish darajasi baholanadi; ikkinchidan, aholining ekologik xabardorligi va amaliy saralash xulq-atvori o'rtasidagi tafovut aniqlanadi; uchinchidan, raqamli monitoring, iqtisodiy rag'batlantirish va institutsional boshqaruv vositalarini uyg'unlashtirish asosida hududiy chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish yo'nalishlari asoslanadi.

Shunday qilib, tadqiqot chiqindilarni boshqarishning makroiqtisodiy va institutsional jihatlari bilan bir qatorda, uy xo'jaliklari darajasidagi xulq-atvor omillarini ham hisobga olgan holda Xorazm viloyatida sirkulyar iqtisodiyotga o'tishning amaliy imkoniyatlarini baholashga qaratilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature review).

Maishiy chiqindilarni samarali boshqarish masalasi zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarda barqaror rivojlanish, yashil iqtisodiyot va sirkulyar iqtisodiyot konsepsiyalarining muhim tarkibiy yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Mazkur yondashuvlarning nazariy asoslari tabiiy kapitalni saqlash, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va iqtisodiy o'sishning atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirish tamoyillariga borib taqaladi. Pearce, Markandya va Barbier tomonidan ishlab chiqilgan yashil iqtisodiyot konsepsiyasida iqtisodiy farovonlikni oshirish bilan bir qatorda tabiiy resurslarning uzoq muddatli saqlanishi va ekologik xarajatlarni iqtisodiy qarorlar tizimida hisobga olish zarurligi asoslab berilgan [12]. UNEP tadqiqotlarida esa ushbu yondashuv resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilar hosil bo'lishini kamaytirish va ekologik innovatsiyalarni rag'batlantirish bilan bevosita bog'lanadi [14].

Sirkulyar iqtisodiyot konsepsiyasining rivojlanishi chiqindilarga bo'lgan an'anaviy munosabatni sezilarli darajada o'zgartirdi. Ellen MacArthur Foundation tomonidan ilgari surilgan yondashuvga ko'ra, ishlab chiqarish va iste'mol jarayonlarida materiallarning iqtisodiy aylanishini imkon qadar uzaytirish, ularni qayta foydalanish, qayta ishlash va ikkilamchi xomashyo sifatida iqtisodiy jarayonga qaytarish

muhim ahamiyatga ega [7]. Shu nuqtayi nazardan, maishiy chiqindilarni boshqarish faqat ularni yig'ish va poligonlarga joylashtirish bilan cheklanadigan kommunal xizmat emas, balki resurslarni qayta tiklash, qo'shimcha qiymat yaratish va ekologik xarajatlarni kamaytirishga xizmat qiluvchi iqtisodiy tizim sifatida namoyon bo'ladi.

Chiqindilarni boshqarish samaradorligini baholashda integrallashgan yondashuv alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Wilsonning tadqiqotlarida barqaror chiqindi boshqaruvi texnik infratuzilma bilan bir qatorda institutsional boshqaruv, moliyaviy barqarorlik, xizmatlarning ommabopligi va aholining tizimdagi ishtirokini ham talab qilishi ko'rsatilgan [15]. Wilson, Velis va Cheeseman esa rivojlanayotgan mamlakatlarda chiqindilarni qayta ishlash jarayonida norasmiy sektorning iqtisodiy va ijtimoiy funksiyalariga e'tibor qaratib, chiqindi boshqaruvi tizimini shakllantirishda mahalliy sharoit va institutsional omillarni hisobga olish zarurligini asoslagan [16]. Mazkur xulosalar chiqindilarni boshqarish samaradorligini faqat texnologik infratuzilma ko'rsatkichlari orqali emas, balki aholi xulq-atvori va institutsional muhit bilan birgalikda baholash zarurligini ko'rsatadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar sharoitida chiqindilarni qayta ishlash tizimining samaradorligi texnologik imkoniyatlardan tashqari, aholining ekologik xabardorligi, iqtisodiy rag'batlar va mavjud infratuzilmaning qulayligi bilan ham belgilanadi. Troschinetz va Mihelcic tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda rivojlanayotgan mamlakatlarda barqaror qayta ishlash tizimini shakllantirish uchun texnik yechimlarning o'zi yetarli emasligi, balki mahalliy iqtisodiy, institutsional va ijtimoiy sharoitlarning o'zaro uyg'unligi zarurligi ta'kidlangan [13]. Bu holat aholining chiqindilarni saralashga tayyorligi bilan bir qatorda, saralangan chiqindilarni qabul qiluvchi infratuzilmaning mavjudligi ham real ekologik xulq-atvorni shakllantirishda muhim ekanligini anglatadi.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi ham chiqindilarni boshqarish tizimini bosqichma-bosqich modernizatsiya qilish, qayta ishlash ulushini oshirish va iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Yevropa mamlakatlarida chiqindilarni qayta ishlash va resurslarni qayta iqtisodiy aylanishga kiritish sirkulyar iqtisodiyot maqsadlari bilan uyg'unlashtirilayotgan bo'lsa [8], Shveysariya tajribasida chiqindilar va ikkilamchi xomashyo oqimlarini tizimli monitoring qilish muhim boshqaruv vositasi sifatida namoyon bo'ladi [9]. Yaponiya tajribasi esa resurslarni qayta tiklash, chiqindilar hajmini kamaytirish va texnologik qayta ishlash imkoniyatlarini kengaytirishga asoslangan kompleks boshqaruv modelining amaliy ahamiyatini ko'rsatadi [10].

Shu bilan birga, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, chiqindilarni boshqarish samaradorligini faqat qayta ishlash hajmi yoki infratuzilma ko'rsatkichlari bilan izohlash yetarli emas. Aholining ekologik bilimlari va real kundalik amaliyoti, xizmatlarning mavjudligi va sifati, chiqindilarni saralash imkoniyatlari hamda iqtisodiy rag'batlarning mavjudligi o'zaro bog'liq holda tahlil qilinishi lozim. Ayniqsa, aholining ekologik masalalar bo'yicha xabardorligi mavjud bo'lsa-da, bu bilimlarning amaliy xatti-harakatga to'liq transformatsiya qilinmasligi chiqindilarni boshqarish tizimining muhim ijtimoiy-iqtisodiy jihatlardan biridir [13; 15].

O'zbekistonda mazkur yo'nalishdagi institutsional islohotlar so'nggi yillarda yangi bosqichga ko'tarildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-martdagi PF-56-son Farmoni bilan chiqindilarni qayta ishlash sohasini kompleks tizimlashtirish, poligonlar faoliyatini optimallashtirish, ekosanoat zonalarini tashkil etish, chiqindilarni maksimal darajada qayta ishlash yoki energiya olish maqsadida foydalanish hamda sirkulyar iqtisodiyot amaliyotlarini kengaytirish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilangan [11]. Mazkur hujjat chiqindilarni boshqarish tizimini ekologik vazifa sifatida emas, balki qayta ishlash, investitsiyalarni jalb etish va ikkilamchi resurslardan iqtisodiy qiymat yaratishni birlashtiruvchi kompleks tizim sifatida rivojlantirish uchun muhim institutsional asos yaratadi.

Shunga qaramay, mavjud ilmiy adabiyotlarda O'zbekistonning alohida hududlari kesimida aholining chiqindilarni boshqarish tizimiga munosabati, xizmat ko'rsatish sifatini baholashi, ekologik bilimlari va amaliy xulq-atvori o'rtasidagi bog'liqlikni empirik ma'lumotlar asosida baholashga qaratilgan tadqiqotlar yetarli emas. Ayniqsa, hududiy

infratuzilma va aholining xulq-atvori o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni sotsiologik so'rovnoma natijalari asosida aniqlash muhim ilmiy masala bo'lib qolmoqda.

Mazkur tadqiqot ushbu ilmiy bo'shliqni Xorazm viloyati misolida to'ldirishga qaratilgan. Tadqiqotda aholining chiqindilarni boshqarish xizmatlaridan qoniqish darajasi, ekologik xabardorligi, chiqindilarni saralash bo'yicha amaliy xatti-harakati hamda tizimni takomillashtirishning institutsional va iqtisodiy mexanizmlariga munosabati birlamchi sotsiologik ma'lumotlar asosida tahlil qilinadi. Shu jihatdan, tadqiqot mavjud nazariy yondashuvlarni hududiy empirik dalillar bilan to'ldirish va Xorazm viloyatida chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirishning amaliy yo'nalishlarini asoslashga xizmat qiladi.

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Методы /Methods).

Tadqiqot Xorazm viloyatida maishiy chiqindilarni boshqarish tizimining amaldagi holati, aholining ekologik xabardorligi va sirkulyar iqtisodiyot tamoyillariga munosabatini empirik baholashga qaratilgan. Tadqiqotda miqdoriy sotsiologik so'rovnoma, deskriptiv va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi.

Empirik ma'lumotlar 2025-yilda Xorazm viloyati aholisi o'rtasida o'tkazilgan sotsiologik so'rovnoma asosida shakllantirildi. So'rovnomada jami 170 nafar respondent ishtirok etdi. Unda aholining chiqindilarni olib chiqish xizmatlari sifati va davriyligidan qoniqishi, chiqindilarni saralash amaliyoti, qayta ishlash mumkin bo'lgan chiqindilar haqidagi xabardorlik darajasi hamda chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirishga munosabati o'rganildi.

Tahlil jarayonida respondentlarning javoblari umumlashtirilib, asosiy ko'rsatkichlarning chastotasi va ulushi aniqlandi. Shuningdek, respondentlarning yashash joyiga ko'ra qishloq hududlari, tuman markazlari va Urganch shahri kesimidagi farqlarni aniqlash uchun qiyosiy yondashuvdan foydalanildi. Aholining ekologik xabardorligi va amaliy xulq-atvori o'rtasidagi tafovutni baholash maqsadida qayta ishlash mumkin bo'lgan chiqindilar haqidagi bilim darajasi hamda chiqindilarni muntazam saralash amaliyoti o'zaro taqqoslandi. Mazkur ko'rsatkichlar o'rtasidagi tafovut foiz punktlarida hisoblanib, "bilim–amal" uzilishining miqdoriy ko'lamini baholandi.

Tadqiqot natijalari tanlanma doirasidagi empirik tendensiyalarni ifodalaydi hamda Xorazm viloyatida maishiy chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Mazkur yondashuv natijalarni butun O'zbekiston aholisi uchun umumlashtirishdan ko'ra, aynan tadqiqot tanlanmasi va Xorazm viloyati sharoitidagi holatni baholashga qaratilgan.

Tahlil va natijalarlar (Анализ и результаты/Analysis and results). Empirik tahlilning dastlabki bosqichida Xorazm viloyatida o'tkazilgan sotsiologik so'rovnomada ishtirok etgan respondentlarning hududiy va demografik tarkibi tahlil qilindi. So'rovnomada jami 170 nafar respondent qatnashgan bo'lib, ularning 169 nafari, ya'ni 99,4 foizi Xorazm viloyatining doimiy aholisi, 0,6 foizi esa boshqa hudud vakillaridan iborat. Bu ko'rsatkich tanlanmaning asosiy qismi tadqiqot obyekti sifatida belgilangan hudud aholisi hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatadi.

Respondentlarning yosh tarkibi ham nisbatan xilma-xil shakllangan. 16–20 yoshdagi respondentlar 32,9 foizni, 30–40 yoshdagilar 27,1 foizni, 40 yosh va undan yuqori bo'lganlar esa 22,9 foizni tashkil etgan. 21–25 yoshdagi respondentlarning ulushi 10,0 foiz, 25–30 yoshdagilarniki esa 7,1 foizni tashkil etdi. Mazkur taqsimot chiqindilarni boshqarish masalasiga turli yosh guruhlarining munosabatini qiyosiy baholash imkonini beradi. Xususan, yosh guruhlaridagi tafovutlar ekologik xabardorlik, chiqindilarni saralashga munosabat va kommunal xizmatlardan qoniqish kabi ko'rsatkichlarni keyingi bosqichlarda differensial tahlil qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Respondentlarning yashash joyi bo'yicha taqsimotida qishloq hududlari 38,7 foiz, tuman markazlari 35,0 foiz va Urganch shahri 26,3 foiz ulushni tashkil etgan. Bunday tarkib tadqiqot doirasida chiqindilarni yig'ish va olib chiqish xizmatlarining hududiy xususiyatlarini qiyoslash

imkonini beradi. Ayniqsa, qishloq hududlari va shahar markazlarida chiqindilarni to'plash infratuzilmasi, xizmat ko'rsatish davriyligi hamda aholining mavjud tizimga munosabatidagi farqlarni aniqlash tadqiqotning keyingi tahliliy bosqichi uchun muhim ahamiyatga ega (1-jadval).

1-jadval


Respondentlarning demografik va hududiy taqsimoti ko'rsatkichlari (n = 170)¹

№	Ko'rsatkich	Toifa	Respondentlar soni (n)	Ulushi (%)
1	Hududiy mansublik	Xorazm viloyati doimiy aholisi	169	99.4
		Boshqa hudud vakillari	1	0.6
2	Yosh guruhlari	16–20 yosh	56	32.9
		21–25 yosh	17	10.0
		25–30 yosh	12	7.1
		30–40 yosh	46	27.1
		40 yosh va undan yuqori	39	22.9
3	Yashash joyi (urbanizatsiya darajasi)	Qishloq hududlari	66	38.7
		Tuman markazlari	59	35.0
		Viloyat shahar markazi (Urganch shahri)	45	26.3
	Jami		170	100.0

Tanlanmaning ushbu tarkibiy xususiyatlari keyingi tahlillarda respondentlarning yashash joyi va yosh guruhlarini hisobga olgan holda chiqindilarni boshqarish xizmatlari samaradorligini baholash imkonini beradi. Shu nuqtayi nazardan, chiqindilarni olib ketish chastotasi, xizmatlardan qoniqish darajasi va mavjud sanitar-tozalash infratuzilmasining aholiga xizmat ko'rsatish sifati tadqiqotning navbatdagi muhim tahlil yo'nalishini tashkil etadi. Chiqindilarni olib ketish davriyligi aholining kundalik hayotida bevosita kuzatiladigan xizmat ko'rsatkichi bo'lgani sababli, mazkur indikator orqali hududiy chiqindi boshqarish tizimining amaliy samaradorligini baholash mumkin.

Hududiy logistika va sanitar-tozalash tizimining barqaror ishlashi chiqindilarni qayta ishlash zanjiri muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omildir. Tadqiqot doirasida Xorazm viloyatida maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish xizmatlarining qay darajada muntazam va tartibli tashkil etilgani aholi fikri asosida tahlil qilindi. Olingan empirik natijalar mintaqada chiqindilarni yig'ish tizimida jiddiy infratuzilmaviy va logistik muammolar mavjudligini tasdiqlamoqda (1-rasm).

¹ Muallif ishlamasi




1-rasm. Hududlarda maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish xizmatlarining davriyligi (n = 170 uchun foiz hisobida)²

1-rasm ma'lumotlariga ko'ra, respondentlarning atigi 3,5 foizi chiqindilar har kuni olib ketilishini tasdiqlagan, 40,6 foizi esa chiqindilar oylab olib ketilmasligini qayd etgan. Mazkur tizimli uzilishlar hududdagi sanitariya korxonalarining moddiy-texnik quvvati pastligidan dalolat berib, qayta ishlanuvchi ikkilamchi xomashyoning sifatsizlanishiga va yashil iqtisodiyot tamoyillarining joriy etilishiga to'sqinlik qilmoqda. Kommunal infratuzilma logistikasini tubdan optimallashtirish zarur.

Xizmat ko'rsatish tizimining barqarorligini baholash maqsadida oxirgi uch oy ichida kuzatilgan kechikishlar tahlil qilinganda, respondentlarning 84,1 foizi chiqindilarni olib chiqishda surunkali yoki davriy uzilishlar bo'lganini tasdiqlagan. Tizimda hech qanday kechikish bo'lmaganini va xizmat ko'rsatish muntazamligini qayd etganlar ulushi esa atigi 15,9 foizni tashkil etadi. Bunday yuqori ko'rsatkichli kechikishlar sanitariya-tozalash korxonalari faoliyatini nazorat qiluvchi monitoring tizimining zaifligidan dalolat beradi. Mazkur holat yashil iqtisodiyotga o'tish bosqichida chiqindi tashuvchi operatorlar ustidan raqamli va institutsional nazorat mexanizmlarini tubdan takomillashtirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Aholining maishiy chiqindilarni boshqarish tizimiga bergan umumiy bahosi ko'rsatilayotgan sanitariya xizmatlarining ijtimoiy va iqtisodiy samaradorligini ko'rsatuvchi asosiy indikator hisoblanadi. Tadqiqot doirasida iste'molchilarning ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatidan qoniqish darajasi besh ballik Likert shkalasi yordamida o'rganilganda, aholi munosabatida jiddiy qutblanish mavjudligi aniqlandi (2-rasm).



2-rasm. Respondentlarning maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish xizmatlari sifatiga bergan integral bahosi (n = 170 uchun foiz hisobida)³

2-rasm ma'lumotlariga ko'ra, respondentlarning jami 45,3 foizi hududdagi chiqindi boshqaruvi tizimiga salbiy munosabat bildirib, xizmat sifatini eng past (1 va 2 ball) deb baholagan. Bunda eng quyi 1

ballni tanlaganlar ulushi 31,8 foizni, 2 ball berganlar esa 13,5 foizni tashkil etgan. Tizimga neytral pozitsiyada bo'lganlar 20,6 foizni tashkil qilgan bo'lsa, ijobiy reytinglar ulushi jami 34,0 foizni (4 ball — 17,6 foiz va 5 ball — 16,5 foiz) ko'rsatdi. Fikrlar taqsimotidagi bunday nomutanosiblik xizmat ko'rsatuvchi korxonalarning operatsion barqarorligi pastligi sababli aholining tizimga bo'lgan institutsional ishonchi pasayganidan dalolat beradi. Bu holat to'g'ridan-to'g'ri yuqorida tahlil qilingan logistik kechikishlar va surunkali uzilishlarning mantiqiy oqibatidir.

Biroq, hududiy ekologik menejment samaradorligi faqat xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar faoliyatiga emas, balki uy xo'jaliklarining individual ekologik xulq-atvoriga ham uzviy bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, aholining maishiy chiqindilarni turlari bo'yicha birlamchi saralash amaliyoti tahlil qilinganda, respondentlarning 28,8 foizi ushbu jarayon bilan doimiy shug'ullanishini, 33,5 foizi esa ba'zan amalga oshirishini qayd etgan. Aksincha, tanlanmaning 37,6 foizi chiqindilarni umuman saralamasligini bildirgan.

Garchi aholining 62,3 foizi ushbu amaliyotda qisman ishtirok etayotgan bo'lsa-da, tizimli saralash ko'rsatkichining pastligi va undan mutloq voz kechganlar ulushining yuqoriligi mintaqada ekologik rag'batlantirish mexanizmlari hamda zarur infratuzilmaning (differensial konteynerlarning) yetishmasligini ko'rsatadi. Mazkur tahlillar chiqindilarni boshqarish islohotlarini faqat xizmat sifatini oshirish bilan cheklamay, fuqarolarning ongli ishtirokini kuchaytiruvchi ta'limiy va iqtisodiy vositalar bilan mustahkamlash zarurligini ta'kidlaydi. Aholining ekologik xulq-atvor determinantlarini yanada chuqurroq o'rganish maqsadida, keyingi bosqichda respondentlarning qayta ishlanadigan chiqindi turlari bo'yicha fundamental bilim darajasi va xabardorligi baholandi.

Mintaqaviy ekologik siyosat va sirkulyar modellar samaradorligini ta'minlashda aholining kognitiv bilim darajasi hamda axborotlashganlik balansi fundamental ahamiyatga ega. Tadqiqot doirasida respondentlarning qayta ishlash imkoniyati mavjud bo'lgan chiqindi turlari haqidagi tushuncha va tasavvurlari o'rganilganda, aholining ekologik savodxonlik ko'rsatkichlari ijobiy tendensiyaning ko'rsatdi (2-jadval).

2-jadval

Qayta ishlash mumkin bo'lgan chiqindilar haqidagi respondentlar bilim darajasi (n = 170)⁴

№	Bilim darajasi (toifa)	Respondentlar soni (n)	Ulushi (%)
1	Ha (yetarli ma'lumotga ega)	77	45.3
2	Qisman bilaman	59	34.7
3	Yo'q (ma'lumotga ega emas)	34	20.0
Jami		170	100.0

2-jadval ma'lumotlariga ko'ra, aholining 80,0 foizi (45,3% to'liq, 34,7% qisman) ekologik xabardorlikka ega. Biroq, bu yuqori ko'rsatkich amaliy saralash darajasi (28,8%) bilan qiyoslanganda, mintaqada kognitiv-amaliy uzilish muammosi mavjudligini tasdiqlaydi. Bu holat nazariy bilimlarni amaliyotga o'tkazish uchun qulay infratuzilma va iqtisodiy rag'batlar tizimini joriy etishni taqozo etadi.

Chiqindilarni belgilanmagan joylarga tashlash sabablari tahlil qilinganda, respondentlarning 18,8 foizi logistik kechikishlarni, 21,2 foizi ekologik madaniyat pastligini, 14,7 foizi esa maxsus qutilar yetishmasligini asosiy omil sifatida ko'rsatgan. Eng e'tiborli jihati, respondentlarning 40,6 foizi ushbu muammoni barcha infratuzilmaviy, ma'muriy va madaniy kamchiliklarning kompleks oqibati deb hisoblaydi.

² Muallif ishlanmasi

³ Muallif ishlanmasi

⁴ Muallif ishlanmasi

Binobarin, mintaqada sanitar-tozalash tizimini tartibga solish infratuzilmaviy tadbirlarni, ma'rifiy ishlarni hamda ma'muriy nazorat mexanizmlarini bir vaqtda olib borishni talab etadi.

Mintaqaviy ekologik menejmentni tartibga solishda ma'muriy jazo vositalari bilan operatsion xizmat ko'rsatish sifati o'rtasidagi optimal muvozanatni ta'minlash muhim iqtisodiy ahamiyatga ega. Chiqindilarni boshqarish tizimida nazorat va jarima choralarini kuchaytirish zarurligi bo'yicha aholi fikri o'rganilganda, respondentlarning munosabati quyidagicha taqsimlandi:

❖ **51,8 foiz** ishtirokchi ma'muriy nazorat va jazolash mexanizmlarini qat'iylashtirishni ekologik tartibni ta'minlashning zaruriy sharti deb hisoblaydi.

❖ **38,8 foiz** respondent muammoning yechimini ma'muriy choralarda emas, balki bevosita xizmat ko'rsatish sifatini tubdan yaxshilashda ko'radi.

❖ **9,4 foiz** subyekt esa nazorat tizimini kuchaytirishga mutloq ehtiyoj yo'qligini ta'kidlagan.

Mazkur empirik taqsimot aholining institutsional choralarni qabul qilish ierarxiyasini ko'rsatadi. Iqtisodiy nuqtai nazardan, xizmat ko'rsatish zanjirining taklif tomonidagi infratuzilmaviy kamchiliklar bartaraf etilmasdan turib, faqat qattiqqo'l nazorat choralari joriy etish kutilgan yashil samorani bermaydi [9]. Shuning uchun amaliy islohotlar strategiyasida operatsion samaradorlikni oshirish ma'muriy jazolash normalaridan ko'ra ustuvor vazifa sifatida belgilanishi lozim.

Xizmat ko'rsatish sifati va axborot asimmetriyasini zamonaviy intellektual tizimlar orqali hal etish imkoniyatlari tadqiqotning keyingi strategik bosqichini tashkil etadi. Shu maqsadda, uy xo'jaliklarini mobil ilovalar yordamida real vaqt rejimida logistik jarayonlardan xabardor qilib borish tizimining foydalilik darajasi baholandi. 169 nafar respondent ishtirok etgan ushbu modul mintaqada raqamli texnologik innovatsiyalarga bo'lgan ijtimoiy ehtiyoj va adaptatsiya salohiyatini aniqlashga xizmat qiladi.

Xizmat ko'rsatish sifati va axborot asimmetriyasini zamonaviy intellektual tizimlar orqali hal etish imkoniyatlari tadqiqotning eng yuqori ijtimoiy talabga ega yo'nalishlaridan biri bo'lib chiqdi. Ma'lumotlar tahlili aholining raqamli innovatsiyalarga va me'yoriy o'zgarishlarga adaptatsiya salohiyati o'ta yuqori ekanligini ko'rsatmoqda:

- **Raqamli yechimlarga talab:** Respondentlarning 94,1 foizi chiqindi olib ketish vaqti haqida mobil ilova orqali xabardor qilish tizimini qo'llab-quvvatlab, ushbu vositani axborot yetishmovchiligini kamaytirish va operatsion samaradorlikni oshirishning yuqori samarali instrumenti deb hisoblamogda.

- **Majburiy qonuniy tartibga solish:** Ishtirokchilarning 93,8 foizi chiqindilarni manbada saralash amaliyotining qonuniy ravishda majburiy xarakterga keltirilishiga to'liq ijobiy munosabat bildirdi. Mazkur ko'rsatkich aholining ijtimoiy mas'uliyati amalda yuqori ekanligini va davlat organlari uchun "nol chiqindi" tamoyillarini me'yoriy hujjatlar orqali joriy etish borasida qulay ijtimoiy-psixologik zamin shakllanganini isbotlaydi.

Mintaqada ekologik menejment arxitekturasini isloh qilishning yakuniy strategik ustuvorliklari reyting asosida baholandi. Respondentlarning eng katta qismi, ya'ni 57,1 foizi sanitar-tozalash tizimini muvaffaqiyatli transformatsiya qilish yagona omilga emas, balki barcha tarkibiy choralar majmuasining kompleks (sinxron) tarzda amalga oshirilishiga bog'liq deb hisoblaydi. Alohida omillar kesimida esa xizmat ko'rsatish tezligi va logistik intizomni yaxshilash (20,0%), ekologik targ'ibot ishlarini kuchaytirish (8,8%), qat'iy ma'muriy nazorat va jarimalarni joriy etish (8,8%) hamda tizimni to'liq raqamlashtirish (5,3%) vazifalari qayd etildi.

Ushbu empirik dalillar respondentlarning chiqindilarni boshqarish tizimidagi uzilishlarni ko'p qirrali va zanjirband hodisa sifatida chuqur idrok etayotganini ko'rsatadi. Operativ xizmat ko'rsatish sifati boshlang'ich poydevor hisoblansa, ekologik targ'ibot, qat'iy nazorat va raqamli boshqaruv vositalari ushbu poydevorni mustahkamlovchi sinergetik mexanizmlardir. Tadqiqot natijalari yashil o'sish strategiyasi doirasida hududiy chiqindilarni boshqarish modelini tubdan isloh qilishda unifikatsiyalashgan integratsion yondashuv ustuvor ekanligini to'liq ilmiy jihatdan asoslaydi.

Xulosa va takliflar (Выводы и предложения/Conclusion).

Xorazm viloyatida 170 nafar respondent ishtirokida o'tkazilgan empirik tadqiqot natijalari maishiy chiqindilarni boshqarish tizimida, avvalo, chiqindilarni yig'ish va olib chiqib ketish xizmatlarining muntazamligi bilan bog'liq muammolar mavjudligini ko'rsatdi. So'rovnomaga natijalarida xizmat ko'rsatishdagi kechikishlar yuqori ulushni tashkil etgani hududiy chiqindi boshqaruvi tizimining amaliy samaradorligini oshirish zarurligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, aholining mavjud tizimga munosabati, ekologik xabardorligi va amaliy xulq-atvori o'rtasidagi tafovut tadqiqotning muhim natijalaridan biri sifatida namoyon bo'ldi.

Xususan, respondentlarning 80,0 foizi chiqindilarni boshqarish va ekologik masalalar bo'yicha yetarli darajada xabardor ekanligini bildirgan bo'lsa, chiqindilarni amalda saralash bilan bog'liq ko'rsatkich 28,8 foizni tashkil etdi. Mazkur tafovut aholining ekologik bilim va munosabatlari har doim ham tegishli amaliy xatti-harakatga aylanmasligini ko'rsatadi. Demak, chiqindilarni boshqarish samaradorligini oshirishda faqat ekologik targ'ibot va xabardorlikni kuchaytirishning o'zi yetarli emas; buning uchun qulay infratuzilma, muntazam xizmat ko'rsatish, iqtisodiy rag'batlar va institutsional mexanizmlarning o'zaro uyg'unligi talab etiladi.

Tadqiqotda respondentlarning 40,6 foizi chiqindilarni boshqarishdagi muammolarning asosiy sabablarini bir nechta o'zaro bog'liq omillar bilan izohlagan, 57,1 foizi esa muammoni hal etishda kompleks yondashuv zarurligini qayd etgan. Ushbu natijalar chiqindilarni boshqarish masalasini faqat sanitariza xizmati yoki alohida ekologik muammo sifatida emas, balki infratuzilma, aholi xulq-atvori, iqtisodiy rag'batlar va boshqaruv mexanizmlarini birlashtiruvchi tizim sifatida ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari asosida Xorazm viloyatida maishiy chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi:

1. **Chiqindilarni olib chiqib ketish logistikasini takomillashtirish.** Hududlarning aholi zichligi, geografik joylashuvi va chiqindi hosil bo'lish hajmini hisobga olgan holda chiqindilarni olib chiqish yo'nalishlari va xizmat ko'rsatish intervallarini qayta optimallashtirish maqsadga muvofiq. Xizmat ko'rsatish davriyligi bo'yicha yagona monitoring mezonlarini joriy etish xizmat sifati ustidan nazoratni kuchaytirishga xizmat qiladi.

2. **Raqamli monitoring mexanizmlarini rivojlantirish.** Chiqindi konteynerlari, maxsus transport vositalari va olib chiqib ketish marshrutlarini raqamli monitoring qilish, aholining murojaat va shikoyatlarini yagona elektron platforma orqali qabul qilish hamda xizmat bajarilishini real vaqt rejimida qayd etish tizimning shaffofligi va boshqaruv samaradorligini oshirishi mumkin.

3. **Chiqindilarni manbada saralash uchun iqtisodiy rag'batlarni kuchaytirish.** Aholining chiqindilarni saralashga tayyorligi yuqori ekanini ko'rsatuvchi natijalar mavjud bo'lgan sharoitda saralangan chiqindilarni alohida topshiruvchi uy xo'jaliklari uchun tarif chegirmalari, bonuslar yoki boshqa iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlarini sinov tariqasida joriy etish maqsadga muvofiq. Bunday mexanizmlar ekologik bilimni amaliy xulq-atvorga aylantirishga xizmat qilishi mumkin.

4. **Noqonuniy chiqindi tashlashning oldini olishda infratuzilmaviy va nazorat choralari uy'g'unlashtirish.** Nazorat va ma'muriy choralarni kuchaytirish bilan bir qatorda, aholi uchun chiqindilarni qonuniy tarzda topshirish imkoniyatlarini kengaytirish zarur. Shu sababli jazo mexanizmlari xizmat ko'rsatish sifati va infratuzilmaning mavjudligi bilan birgalikda qo'llanilgandagina barqaror natija berishi mumkin.

5. **Qayta ishlash infratuzilmasiga investitsiyalarni kengaytirish.** Chiqindilarni saralash va qayta ishlash korxonalarini hududiy ehtiyojlardan kelib chiqib joylashtirish, xususiy investitsiyalarni jalb qilish hamda ikkilamchi xomashyodan mahsulot ishlab chiqarish zanjirlarini rivojlantirish chiqindilarning iqtisodiy qiymatini oshirish imkonini beradi.

Mazkur takliflarning institutsional jihatdan amalga oshirilishi O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 24-martdagi PF-56-son Farmonida belgilangan chiqindilarni qayta ishlash tizimini kompleks

takomillashtirish va sirkulyar iqtisodiyot amaliyotini joriy etish yo'nalishlari bilan uyg'unlashadi [11]. Farmonda mavjud qattiq maishiy chiqindi poligonlarini 2030-yilgacha 50 foizga qisqartirish, chiqindilarni imkon qadar qayta ishlash yoki boshqa texnologik usullar orqali iqtisodiy aylanishga jalb etish hamda "nol chiqindi" tamoyili asosida ekosanoat zonalarini tashkil etish kabi ustuvor vazifalar belgilangan [11]. Xususan, Farmonning 2025–2027-yillarga mo'ljallangan manzilli ro'yxatida Xorazm viloyati, Urganch tumani hududida 15 gektar maydonda ekosanoat zonasini tashkil etish nazarda tutilgan [11].

Shu jihatdan, Xorazm viloyatida chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish faqat chiqindilarni olib chiqib ketish xizmatlarini yaxshilash bilan cheklanmasdan, ularni saralash, qayta ishlash, ikkilamchi xomashyodan foydalanish va iqtisodiy aylanishga qaytarishni

o'z ichiga oluvchi yagona hududiy tizim sifatida shakllantirilishi lozim. Tadqiqotda aniqlangan ekologik xabardorlik va amaliy xulq-atvor o'rtasidagi tafovut esa ushbu tizimda infratuzilmaviy va iqtisodiy mexanizmlarning alohida ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari Xorazm viloyatida maishiy chiqindilarni boshqarish samaradorligini oshirish uchun uchta o'zaro bog'liq yo'nalish — **logistik infratuzilmani modernizatsiya qilish, aholining amaliy ishtirokini iqtisodiy rag'batlantirish va raqamli-institutsional boshqaruvni kuchaytirish** — birgalikda amalga oshirilishi zarurligini ko'rsatadi. Mazkur yondashuv hududiy chiqindi boshqaruvi tizimini sirkulyar iqtisodiyot tamoyillariga bosqichma-bosqich moslashtirish va chiqindilarni iqtisodiy resurs sifatida qayta muomalaga kiritish uchun amaliy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/ References):

1. Pearce, D., Markandya, A., & Barbier, E. (1989). *Blueprint for a Green Economy*. London: Earthscan.
2. UNEP. (2011). *Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication*. Nairobi: United Nations Environment Programme.
3. Ellen MacArthur Foundation. (2013). *Towards the Circular Economy: Economic and Business Rationale for an Accelerated Transition*. Cowes: Ellen MacArthur Foundation.
4. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish vazirligi. (2025). O'zbekistonda chiqindilarni qayta ishlash: "yashil" iqtisodiyot sari qadam. Rasmiy axborot materiali.
5. Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligi. (2026). 2025-yil yakunlari bo'yicha chiqindilarni boshqarish sohasidagi natijalar. Rasmiy brifing ma'lumotlari.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2025). Chiqindilarni qayta ishlash sohasini yanada takomillashtirish hamda kompleks tizimlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida: 2025-yil 24-martdagi PF-56-son Farmon. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi — Lex.uz. PF-56-son Farmon — Lex.uz
7. Troschinetz, A. M., & Mihelcic, J. R. (2009). Sustainable recycling of municipal solid waste in developing countries. *Waste Management*, 29(2), 915–923.
8. Wilson, D. C. (2007). Development drivers for waste management. *Waste Management & Research*, 25(3), 198–207.
9. Wilson, D. C., Velis, C., & Cheeseman, C. (2006). Role of informal sector recycling in waste management in developing countries. *Habitat International*, 30(4), 797–808.
10. European Environment Agency (EEA). (2023). *Municipal Waste Management in Europe: Progress towards Circular Economy Targets*. Copenhagen: European Environment Agency.
11. Federal Office for the Environment (FOEN). (2024). *Waste and Raw Materials Statistics*. Bern: Swiss Federal Office for the Environment.
12. Ministry of the Environment, Government of Japan. (2024). *Report on the State of Municipal Solid Waste Management and Resource Recovery in Japan*. Tokyo: Government of Japan.